

BATALYON TAKTIK O'QUVINI TAYYORLASH VA O'TKAZISHDA O'QUV RAHBARIYATINI TAYINLASH, ULARNING MAJBURIYATLARI VA ISHLASH IZCHILLIGI

Ochilov Qo'ldosh

*podpolkovnik, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi Harbiy
xavfsizlik va davlat mudofaasi fakulteti 2 - bosqich tinglovchisi*

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarida o'tkaziladigan taktik o'quvlarga tayyorgarlik ko'rish va olib borish asosida taktik o'quv rahbariyatini tayinlash omillar tahlil qilinadi, o'quv rahbarini o'quvga tayyorlash va olib borish bo'yicha majburiyatlarini va ishlash izchilligi samaradorligini oshirish bo'yicha tavsiyalar beriladi.

Kalit so'z: *Taktik o'quv, brigada, jangovar mashq, mudofaa, hujum, poligon, rahbar.*

O'quvga tayyorgarlik ko'rish va o'tkazish uchun o'quv rahbariyati, vositachilar, nazorat guruhi va boshqa mansabdor shaxslar tarkibi o'quv mavzusi, uning maqsadlari, jalb etilgan bo'linmalar soni va shu kabi boshqa shart-sharoitlarga bog'liq holda tayinlanadi.

O'quvga tayyorgarlik o'quv rahbariyatini (tashkiliy-uslubiy va taktik hujjatlarni ishlab chiqish) va qo'shin vositachilarini tayinlash; o'rganuvchi bo'linmalarni; o'quv o'tkazish joyini jixozlash; moddiy-texnik ta'minotini tayyorlashdan iborat bo'ladi.

O'quvga tayyorgarlik ko'rish mobaynida o'quv rahbari tomonidan amalga oshiriladigan ishlar izchilligi

O'quvni tashkillashtirishga bog'liq dastlabki ma'lumotlarni aniqlash; o'quvni tayyorlash va o'tkazish uchun mansabdor shaxslarni tayinlash; o'quvning taktik g'oyasini (taktik vaziyatni) ishlab chiqish; o'rinbosarlar, yordamchilar va rahbariyat shtabiga tayinlangan ofitserlarni taktik o'quv g'oyasi bilan tanishtirish; o'quv o'tkaziladigan hududni o'rganish tadbirlarini tashkillashtirish; o'quv rejasini ishlab chiqishga bog'liq ko'rsatmalar berish; o'quv rejasini tasdiqlash uchun katta boshliqqa taqdim etish; nishonlar vaziyati chizmasini ilova qilgan holda dala o'quv maydonidan foydalanishga oid so'rovnoma berish; rahbariyat tarkibiga tayinlangan ofitserlar va vositachilarning bo'lg'usi o'quvga hozirlik ko'rishlarini tashkillashtirish; o'quvga jalb etiladigan batalyon bilan taktik-saf mashg'ulotlarini, shu jumladan, bo'linmalarning o'quvga shayligini tekshirish uchun saf ko'rigini o'tkazish; o'quv o'tkaziladigan hudud va nishonlar maydonini hozirlash tadbirlarini tashkillashtirish; oldindan tayyorlangan nishonlar maydonida o'q otish amallari bo'yicha vositachilar bilan mashg'ulot o'tkazish; o'quvni o'tkazishga tayyor ekanligi haqida katta boshliqqa bildiruv berish.

O'quv rahbari rejalashtirish hujjatlarida belgilangan ma'lumotlar asosida vazifani aniqlashtiradi.

Bunda: Jangovar va manaviy-ma'rifiy tayyorgarlik rejasi va uning ilovalarida belgilangan dastlabki ma'lumotlar; o'quvning mavzusi va turi; o'quvga jalb qilinadigan bo'linmalar tarkibi; o'quvni o'tkazish joyi va vaqti; motivesurklar, o'q-dorilar va taqlid (imitatsiya) vositalarini ishlatish me'yorlarini o'rganadi.

O'quv rahbari vaziyatni baholashda bo'linmalar tomonidan bajariladigan vazifalarning mazmunini va hajmini; jangovar shaylikning holati va o'rganuvchilarni dala ko'nikmalari darajasini; qurol-yaroq va harbiy texnikaning holatini; o'quvda qatnashadigan bo'linmalarning shaxsiy tarkib bilan butlanganlik darajasini; moddiy vositalar zaxirasining holati va miqdorini; o'quv o'tish joyining masofasi va dala o'quv maydonining imkoniyatlarini tahlil qiladi va yil fasli sharoitlarini hisobga oladi.

Qo'shinlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quv rahbari dastlabki ma'lumotlar bilan ishlashni, mavzuni aniqlashtirishdan boshlaydi. Unda, u mavzuning taktik mazmunini anglashi, mavzuni sifatli o'rganishni ta'minlaydigan turli sharoitlarni aniqlashi lozim.

Rahbariy hujjatlarni o'rganib chiqqan o'quv rahbari dastlabki ma'lumotlarning keyingilarini: O'quvning bosqichlari; o'quv savollari; shartli dushmanning tarkibi va butlanganligini (qanday tarkibda); o'quvni ta'minlash kuch va vositalari (shaxsiy tarkib, aloqa va transport vositalari va boshqalar)ni aniqlaydi [1].

O'quv rahbari o'quvning o'quv maqsadini, bosqichlarini, o'quv savollarini belgilashda mavzuning mazmuni, jangovar tayyorgarlik vazifalari, o'rganuvchi bo'linmalar, komandirlar va shtablarning tayyorgarlik darajasini inobatga olishi lozim.

O'quv rahbari ko'rsatmalari asosida shtab quyidagi tashkiliy – uslubiy hujjatlarni ishlab chiqadi:

O'quvga tayyorgarlik taqvimiy rejasi; o'quvni tayyorlash va o'tkazish haqida buyruq loyihasi; o'quv o'tkazish xududini o'rganish rejasi.

O'quvga tayyorgarlik taqvimiy rejasida, odatda, o'quvga tayyorgarlik tadbirlari, rahbariyatni va qo'shin vositachilarini, o'rganuvchi bo'linma ofitserlarini, shtablar va bo'linmalarni, o'quv o'tish joyini va moddiy-texnik ta'minotni tayyorlash tadbirlari aks ettiriladi. Taqvimiy rejani shtab boshlig'i imzolaydi, o'quv rahbari tomonidan tasdiqlanadi.

O'quvga tayyorgarlik va o'tkazish tadbirlari qism komandirining buyrug'ida aks ettiriladi. Unda, o'quvni o'tkazish muddatlari; o'quvga jalb etiladigan bo'linmalar, qurol-yaroq va harbiy texnika; ishlatiladigan moddiy vositalar zaxirasi; motivesurklar, yoqilg'i va o'q-dorilar, taqlid (imitatsiya) vositalari va boshqa vositalarni sarflash me'yorlari; rahbariyat va qo'shin vositachilarining tarkibi; o'rganuvchi bo'linmalarni o'quvni o'tkazish joyiga chiqarish va doimiy yashash punktiga qaytarish tartibi; komissiyaa tarkibi va vazifalari (qurol-aslaha va harbiy texnikalarni tekshirish bo'yicha, zarur hollarda o'quvni o'tkazish xududini, hamda

qo'shinlarga tegishli bo'lmagan joylarga yetkazilishi mumkin bo'lgan moddiy zararni aniqlash bo'yicha); mashqqa jalb etiladigan bo'linmalarning shaylik jarajasi bo'yicha ko'rik o'tkazish muddatlari va joyi; o'quv tahlilini o'tkazish muddatlari; o'quvni o'tkazish davrida doimiy yashash punktida harbiy qism komandiri vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs ko'rsatiladi.

Batalyon miqyosidagi taktik o'quvni o'tkazish xududini o'rganish rejasi xaritada yoki matn ko'rinishida joyni o'rganishning g'oyasi ilova qilingan holda tayyorlanadi va unda joyni o'rganishning maqsadi, o'rganishni boshlash va tugallash vaqtlari; qatnashuvchilar tarkibi, harakatlanish va aloqa vositalari; harakat yo'nalishi; aniqlanadigan savollar, doimiy yashash punkti bilan aloqa tartibi; joyni o'rganishda qatnashuvchilarning kiyim rusumi aks ettiriladi. Rejani shtab boshlig'i imzolaydi va qism komandiri tasdiqlaydi.

O'quvga tayyorgarlik bo'yicha tadbirlar tayyorgarlik taqvimiy reja asosida amalga oshiriladi.

O'quv rahbari qaror qabul qilib, tayyorgarlik ko'rish uchun ko'rsatmalar berganidan so'ng shaxsan o'quvning taktik g'oyasini ishlab chiqadi. Uni ishlab chiqishda – o'quv rahbari shunday vaziyat yaratishi kerakki, o'quv mavzusini ketma-ket bajarilishi va o'quv maqsadlariga erishish ta'minlanishi lozim. Taktik g'oya umumqo'shin tavsifga ega bo'lib, barcha qo'shin turlari va maxsus qo'shinlarni tayyorgarligini ta'minlashi kerak.

Tashkiliy uslubiy hujjatlarni tasdiqlab, taktik g'oyani ishlab chiqqan o'quv rahbari, ularga aniqlik kiritish maqsadida o'quv o'tkazish xududini borib bevosita o'rganadi. Unga mashg'ulot rahbarining o'rinbosarlari, yordamchilari va poligon boshlig'i jalb etiladi.

Joyni o'rganish davomida o'quv rahbari, bo'linmalar uchun boshlang'ich hududlarni; o'rganuvchi bo'linmalarning jangovar vazifasi va harakat yo'nalishlarini; dushman harakatlarini belgilash joylarini (xududlarini); jangovar ko'rinishlarni va bo'linmalar harakatini ijro etish xududlarini; katta komandirlar (uning nomidan o'quv rahbari harakat qiladi) qarori bo'yicha artilleriya va aviatsiya zarbalarini taqlid qilish (imitatsiya) joylarini; o'q-dorilar tarqatish, qurollarni o'qlash va o'qsizlantirish joylari, vaqtlari va tartibini; mashq o'tkazish hududini jihozlash maqsadida bajariladigan ishlar, buning uchun zarur bo'lgan kuch va vositalarni; aloqa va komendantlik xizmatini tashkillashtirish tartibini; o'quvdan keyin bo'linmalarning to'planish xududlari va ularning doimiy yashash punktiga qaytish tartibini; xavfsizlik talablari va barcha turdagi moddiy vositalarni to'g'ri saqlash choralarini aniqlaydi.

Hududni o'rganish davomida, o'quv rahbari hududning sanitar-epidemiya holatini ham o'rganadi.

Zarur hollarda esa jangovar otish tadbirlari o'tkazilayotgan paytda yaqin oradagi aholi punktlarining xavfsizligiga oid masalalar davlat hokimiyatining mahalliy boshqaruv organlari bilan muvofiqlashtiriladi.

Taktik g'oyani aniqlab, joyini o'rganishni tugallagandan so'ng o'quv rahbari o'quv o'tkazish rejasini tugallash, taktik hujjatlarni, dushman harakatlarini belgilash va imitatsiya rejasini, xususiy rejalarni ishlab chiqish va o'quv o'tkazish joyini tayyorlash bo'yicha buysunuvchilarga vazifalar qo'yadi.

Rahbariyat tarkibiga tayinlangan ofitserlar bilan vositachilarning o'quvga tayyorgarlik ko'rishlari bo'yicha asosiy tadbirlar bo'lg'usi o'quv o'tkaziladigan joyda o'tishi maqsadga muvofiq. Bunda, bo'lg'usi o'quvning har bir bosqichi va jangovar otish bosqichi boshlanishida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan taktik vaziyat, muayyan bosqich davomida o'zlashtirilishi rejalashtirilgan o'quv savollari, bo'linmalarning ma'lum hududga yetib kelish taxminiy vaqtlari, o'rganuvchi bo'linmanma komandirlari tomonidan qabul qilinadigan qarorlarning mumkin bo'lgan variantlari, o'q-dorilarni tarqatish va shaxsiy tarkibga taqsimlash tartibi, otish boshlanadigan va to'xtatiladigan umumiy marralar, har bir qurol turi uchun mo'ljallangan nishonlar ko'rsatiladigan (paydo bo'ladigan) va ko'rsatilishi to'xtatiladigan marralar, ushbu nishonlarni kechayu-kunduz ko'rsatish tartibiga aniqliklar kiritiladi.

O'quv rahbarining nishonlar holati bo'yicha yordamchisi va otish amallari bo'yicha vositachilar ishtirokida tayyorlangan nishonlar maydonida, aloqa va nishonni ko'rsatish vositalaridan foydalangan tarzda bo'linmalar tomonidan amalga oshiriladigan harakatlarning variantlari maydoni o'rganib chiqiladi. Vositachilar, nishonlarni ko'rsatish va taqlid vositalarini qo'llash vaqti va tartibini aniqlash maqsadida, bo'linmalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo'lgan harakatlar yo'nalishlarini joyning o'zida o'rganishlari lozim.

O'rganuvchi bo'linma komandirlari va bo'linmalarni o'quvga tayyorlash

O'quvga tayyorgarlik tadbirlari rejali ravishda o'tkaziladigan mashg'ulotlar davomida amalga oshiriladi; taktik o'quvga tayyorgarlik ko'rishga doir barcha tadbirlar qo'shilmaning (batalyonning) jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik rejasi, hamda mashg'ulotlar jadvalida aks ettirilishi shart; bunday tadbirlardan ko'zlangan asosiy maqsad – shaxsiy tarkibni jangovar vaziyatga imkon qadar yaqin sharoitlarda o'tkaziladigan mashq davomida o'z xizmat majburiyatlarini bajarish, otish topshiriqlarni chindan hal etishga maqsadli tayyorlashdir.

Batalyon shtabining bo'lg'usi o'quvga tayyorgarligi rejali ravishda o'tkaziladigan shtab mashqlari, hamda bo'ysunuvchi bo'linmalar tomonidan muayyan joyda amalga oshirayotgan harakatlari va otish amallarini radio aloqa vositalaridan foydalanilgan tarzda boshqarishga bog'liq mashqlar davomida amalga oshiriladi.

Bo'linmalarni jangovar otish bilan o'tkaziladigan taktik o'quvga tayyorlash jangovar va ma'naviy-ma'rifiy tayyorgarlik rejasida belgilanishi va guruh, vzvod, batalyon va qo'shilmalar hamjihatligini shakllantirish ketma-ketligini buzmasligi lozim. Ushbu tayyorgarlik tadbirlari jangovar tayyorgarlikning izdan chiqarmasligi, faqat alohida savollar bo'yicha bo'linmalarni o'rgatishdan iborat bo'lishi kerak.

Bo'linmalar o'quvga rejadagi mashg'ulotlar mobaynida tayyorlanishadi va bunda turli o'qitish shakllari va usullari qo'llaniladi.

Bo'ladigan o'quv mavzusi bo'yicha bo'linmani bevosita va maqsadga muvofiq tayyorlash batalyon dala chiqishida amalga oshiriladi.

Jangovar o'q otish bosqichi bilan o'tkaziladigan taktik o'quv boshlanishidan oldin, ushbu o'quvda ishtirok etadigan bo'linma bilan bir qator tayyorgarlik tadbirlari o'tkazilishi zarur. Jumladan, bo'linmaning jangovar tayyorgarlik dasturlarida ko'zda tutilgan bo'lib, piyoda yurib bajariladigan taktik-saf va taktik mashg'ulotlar o'tkazilishi; ekipaj a'zolari, hisob, guruh va vzvod shaxsiy tarkibining jipsligini shakllantirilayotgan tadbirlar yakuniga yetkazilishi; jangovar tayyorgarlik dasturlarida ko'zda tutilgan vzvod taktik o'quvlari o'tkazilishi; bo'linmalar tomonidan kechasi va kunduzi jangning turli ko'rinishlarida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar, shu jumladan, o'q otish amallarini boshqarishga bog'lik mashq va mashg'ulotlar vzvod va batalyon komandirlari bilan – ikki marotabadan kam bo'lmagan, guruh va seksiya (tank) komandirlari bilan – besh marotabadan kam bo'lmagan tarzda o'tkazilishi. Ushbu mashq va mashg'ulotlar komandirlik tayyorgarligi, otish mashqlari va tankdan otish mashqlariga ajratilgan vaqt hisobidan o'tkazilishi; o'rganuvchi bo'linma shaxsiy tarkibining barcha toifalari bilan o'q otishga bog'liq topshiriqlar bajariladigan tayyorlov mashqlari o'tkazilishi; ta'limotning tegishli bosqichlariga rejalashtirilgan o'quv-otish mashqlari shaxsiy tarkib tomonidan o'zlashtirilishi; jangovar granatalarni uloqtirish mashqlari bajarilishi; texnik tayyorgarlik, jangovar mashinalarni boshqarish, qo'shinlarni ommaviy qirg'in qurollar ta'siridan himoya qilish va muhandislik tayyorgarligiga oid mavzular (mashqlar) o'zlashtirilishi, shu jumladan, o'quvni sifatli o'tkazish, jangovar o'q otish bilan bog'liq vazifalarni hal etish mobaynida amalga oshiriladigan xatti-harakatlar amaliy mashq qilinishi, buning uchun zarur bo'ladigan boshqa fanlarga oid bilimlar o'zlashtirilishi; xavfsizlik qoidalari puxta o'rganib chiqilishi; bo'linmalar o'z xatti-harakatlarini hamjihatlik bilan bajara olishlari tekshirilishi lozim.

Agar o'quv qishda, tog'li hududlarda o'tkazilishi rejalashtirilgan bo'lsa, shaxsiy tarkib tegishli sharoitlarda bajariladigan hatti-harakatlarning o'ziga xos xususiyatlarini o'zlashtiradi.

O'quvni sifatli o'tishini ta'minlash uchun tayinlangan bo'linmalar bilan o'quv rahbarining tegishli yordamchilari boshchiligida maxsus mashg'ulotlar o'tkaziladi.

Agar nazorat tariqasida o'tkaziladigan taktik-saf mashg'ulotlari davomida bo'linmalarning bo'lg'usi o'quvga shayligiga bog'liq kamchiliklar mavjudligi aniqlansa, vaqt zaxirasi hisobidan ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga bog'liq qo'shimcha mashg'ulotlar o'tkaziladi va shundan so'nggina, o'quvda ishtirok etishga ruxsat beriladi.

Jangovar otish bilan o'tkaziladigan taktik o'quv boshlanishiga 3-5 kun qolganida o'quv rahbari yoki uning ko'rsatmasiga binoan rahbariyat shtabi boshlig'i

tomonidan o'quvga jalb etilgan bo'linmalar shayligini tekshirish uchun saf ko'rigi o'tkaziladi.

Tahlil o'tkazish o'quvning muhim yakuniy qismi bo'lib, bu katta o'quv va tarbiyaviy ahamiyatga egadir.

Tahlil asosini o'quv rahbari xulosasi, u tomonidan tasdiqlangan rahbar o'rinbosarlari, yordamchilari, vositachilar, nazorat va tadqiqot guruhlari rahbarlarining o'rganuvchi shtablar va bo'linmalarining o'quvdagi harakatlari to'g'risidagi xulosalari tashkil etishi shart.

Batalyon taktik o'quvi tahlili barcha shaxsiy tarkib bilan, ofitserlar bilan esa o'quv rahbari tomonidan alohida o'tkaziladi.

Tahlilda quyidagilar ko'rsatiladi:

O'quv maqsadi; tomonlar tarkibi; dastlabki vaziyat; o'quv bosqichlari bo'yicha bo'linmalar harakatlarining tahlili.

O'quv bosqichlari bo'yicha bo'linmalarining harakatini tahlil qilishda, odatda quyidagi savollar tahlil etiladi:

Bosqichning boshlanishidagi taktik vaziyat va undagi o'rganuvchilarning vazifalari; o'rganuvchi komandirlar qabul qilgan qarorining maqsadga muvofiqligi va shtablarning jangni tashkil etish darajasi; yuklatilgan vazifani bajarishda bo'linmalarining harakat usullari va tarzlari; turli me'yorlarning natijalari; bo'linmalar va shaxsiy tarkibning namunali va ahamiyatga molik harakatlaridan misollar; ahloqiy-ruhiy ta'minotning mazmuni va mohiyati.

O'quv rahbari tahlil yakunida o'quv maqsadlariga qay darajada erishilganligini belgilaydi, bo'linma komandirlariga, ularning shtabiga, bo'linmalarining jangovar hamjihatligi va dala sharoitidagi ko'nikmalariga baho beradi va o'quv davomida aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish bo'yicha vazifalar qo'yadi.

O'tkazilgan taktik o'quv natijalari bo'yicha o'quv rahbari o'zining to'g'ridan-to'g'ri boshlig'iga bildiruv beradi.

O'quvni baholash. Jangovar otish bosqichi bilan o'tkaziladigan batalyon taktik o'quvida bo'linmalarga belgilanadigan baho, ularning o'quvlar davomida amalga oshirgan taktik harakatlari uchun, nishonlarga yetkazgan shikast natijalari inobatga olingan holda belgilanadi [2].

Yuqoridagilardan hulosa qilib, qo'shinlarda taktik o'quvlarni o'tkazish tajribasi shuni ko'rsatadiki, o'quv rahbari dastlabki ma'lumotlar bilan ishlashni, mavzuni aniqlashtirishdan boshlaydi. Unda, u mavzuning taktik mazmunini anglashi, mavzuni sifatli o'rganishni ta'minlaydigan turli sharoitlarni aniqlashi lozimligi o'z dolzarbligini saqlab qolmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI:

1. O‘R MV ning 2019-yil 5-fevraldagi *10-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Quruqlikdagi qo‘shinlarning jangovar nizomi”, II-qism. Batalyon, vzvod (batalyon, vzvod taktik guruhi) - T.: O‘R MV Nashriyot bo‘limi, 2019. // Qo‘llanma. 36-37 b.

2. O‘zbekiston Respublikasi mudofaa vazirining 2020-yil 29-avgustdagi 560-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan “Quruqlikdagi qo‘shinlarning o‘qotar qurollari, jangovar mashinalari va tanklardan otish kursi”. T.: O‘R MV Nashriyot bo‘limi, 2019. // Qo‘llanma. 176-180 b.

